

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI



Ro'yxatga olindi:

№

2022 yil " 29 " 01

"AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL
ETISH ASOSLARI" FANIDAN

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:

300000 – Ishlab chiqarish - texnik soha

Ta'lim sohasi:

310000 – Muhandislik ishi

Ta'lim yo'nalishi:

5310600 – Yer usti transport tizimlari va ularning
ekspluatatsiyasi (avtomobil transporti)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lim vazirligining 2019 yil 10.04.dagi 892 sonli buyrug'i bilan maqullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan rozilik berilgan o'quv dasturi, ishchi o'quv rejaga muvofiq ishlab chiqildi

Tuzuvchilar:

“Transport vositalari muhandisligi” kafedrasida
katta o'qituvchisi A.E.Yusupov, dos. A.SH.Azizov

Fanning ishchi o'quv dasturi “Transport vositalari muhandisligi” kafedrasida yig'ilishida (bayon № 1, «26» 08 2022y.), Muhandislik texnikasi fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon № 1, «27» 08 2022y.) va Institut Uslubiy Kengashida (bayon № 1, «29» 08 2022y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv - uslubiy boshqarma boshlig'i

Turdiyev SH.R.

Fakultet Uslubiy Komissiyasi raisi

Eshdavlratov E.U.

Kafedra mudiri

Abdutaxmonov O'N.

KIRISH

O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Bugungi kunda oliy ta'limni rivojlantirish natijasida Respublikamiz iqtisodiyotining barcha sohalarini rivojlantirmoqda.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevralda tasdiqlagan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha “Harakatlar strategiyasi”ning to'rtinchi ustuvor yo'nalishining to'rtinchi bandida ta'lim tizimi to'g'risida bir qancha rejalarda belgilab olingan. Ta'lim berishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish kabi masalalar Prezidentimizning 2017 yil 20 apreldagi 2909-sonli qarorida ham mustahkamlab qoyildi. O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishga qaratilgan dasturni amalga oshirishda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurallantirish va kengaytirish, amaldagi ishlab chiqarishdan jadal foydalanish, boshqaruv tizimini takomillashtirish asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish eng zarur vazifalardan hisoblanadi.

Hozirgi davr sharoitida jahon iqtisodiyotida avtomobil transporti asosiy ichki transport hisoblanib, u mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda yetakchi o'rinni egallaydi.

Avtoobil transporti vositalarini yuqori darajada qo'llanilishi uning iqtisodiyotning barcha sohalarida, jumladan, mehnat bozorida, qurilishda, savdo va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida o'z o'rniga ega ekanligini ko'rsatadi.

Avtotransport korxonalarda yuk va yo'lovchilarni tashish hamda harakat xavfsizligini tashkil etishning ilg'or usul va vositalarini tanlashga alohida e'tibor beriladi.

“Avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari” fani mutaxassislik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 3,4 kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Dasturni amalga oshirish uchun o'quv rejasida ko'zda tutilgan umumkasbiy va mutaxassislik fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Transportning yaxshi ishlashini belgilovchi muhim omillardan biri uning yuk va yo'lovchilarni tashish muntazamligi bo'lib, bu ishlab chiqarishni uzluksiz tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek tashish jarayonida harakat xavfsizligini ta'minlash ham muhim omil hisoblanadi.

Mazkur dastur bo'lg'usi bakalavrlarga fanni o'zlashtirish natijasida talabalar transportning asosiy vazifasi bo'lmish iqtisodiyot soxalari va aholining tashishga bo'lgan talablarini o'z vaqtida qondirish, transport vositalaridan foydalanishni takomillashtirish, yo'llarda xarakat xavfsizligini ta'minlash, transport ishi xajmini oshirish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Dasturda ishlab chiqarish bilan bog'liq mavzularning talabalar tomonidan o'rganilishi mexanizmlari berilgan bo'lib, mavzularda o'ziga xos ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish shartlari berilgan. Mazkur dasturda samarali o'qitish metodologiyasi yordamida talaba avtomobillarda yuk va yo'lovchilarni tashish muntazamligini ta'minlash asoslari, tashish jarayonida harakat xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga imkon beradi.

O'quv fanning maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad tayyorlanayotgan mutaxassisga avtomobillarda tashish va uni tashkil etish sohasida avtomobillardan yuqori darajada foydalanish, ularning atrof muhitga ta'sirini kamaytirish muammolari haqida nazariy va amaliy bilimlar berish, unda fanga, o'z kasbiga qiziqishni o'ttirish kabi sifatlarini shakllantirishdan iborat.

Ushbu fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, avtomobillarda yuk va yo'lovchilarni tashish hamda harakat xavfsizligini tashkil etish jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yadigan talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- transportda yuk va yo'lovchilar yo'lovchilar tashishning asosiy elementlari;
 - avtomobillarni asosiy ish ko'rsatkichlari;
 - avtomobillar ish umumdorligi;
 - yo'l harakatini tashkil etishning maqsadi va vazifalari;
 - yo'l sharoitini taystiflovchi ko'rsatkichlar va ularning harakat xavfsizligiga ta'siri
- haqida tasavvurga ega bo'lishi;**
- avtomobillarni tanlashni;
 - avtomobillar harakatini tashkil etishni;
 - transportda o'tirish-tushirish ishlarini etishni;
 - avtomobillarda yo'lovchilar tashishni tashkil etishni;
 - yo'l-transport hodisalarini ta'rifi, turlarini;
 - xavfsiz harakatlanishni ta'minlashda avtomobillar texnik holatining ahamiyatini

bilishi va ulardan foydalanish;

- avtomobillar ish ko'rsatkichlarini hisoblash;
- yo'lovchilar tashish ishlarini takomillashtirish;
- yo'l-transport hodisalarini ularning ko'rsatkichlarini aniqlash;
- yo'l harakatini tashkil etishning uslubiy asoslari va amaliy tadbirlarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

"Avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil qilish asoslari" fanini talaba muvaffaqiyatli o'rganishda matematika va tabiiy ilmiy fanlar, transport vositasining tuzilishi va nazariyasi, kompyuter tizimlari, avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi, avtomobil transporti iqtisodiyoti, transport umumiy kursi kabi fanlarni ham yaxshi bilishlari talab etiladi. Shuningdek, ushbu fan mutaxassislik fanlari qatoriga kirganligi sababli, uni ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq holda o'rganish taqozo etiladi, o'quv jarayonida ta'mirlash korxonalarida sayohat darslarini va ishlab chiqarish amaliyotlarini o'lkazish ko'zda tutiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Ushbu o'quv fani bo'yicha nazariy va laboratoriya mashg'ulotlardan olingan bilimlarni ishlab chiqarishdagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bo'yicha o'zgarishlar e'tiborga olinishi lozim.

"Avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari" fani ishlab chiqarishda transport tarmoqlarida uchraydigan dolzarb muammolarni hal etishda fanlararo va alohida fanlar kesimida o'z amaliy tavsiyalari, uslubiy vositalari bilan ishtirok etadi.

"Avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari" o'quv fanini o'rganish bo'lg'usi bakalavrlarni nafaqat ishlab chiqarishdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashni,

balki ularni shaxs sifatida har tomonlama kamol topirish vazifalarini samarali ado etishni ta'minlaydi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Fanni o'qitishda innovasion pedagogik texnologiyalar, jumladan quyidagi interaktiv uslublardan, jumladan muhokama-munozara, jamoaviy muhokama yoki muammolar ruyxatini tuzish, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish, bahs yoki munozaralar olib borish, tanqidiy fikrlash, rolli o'yinlar, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, klaster (tutam, bog'lam), baliq skeleti, FSU, "T-sxema", blis-so'rov, "Nima uchun?" texnologiyalari, BBXB (Blaman, bilishni xohlayman, bilib oldim), konseptual va insert jadvalaridan keng foydalaniladi.

Fan bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan Hamdo'stlik mamlakatlarida yangi chop etilgan "Internet" tizimi orqali tarqatilgan elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruzalarni o'tishda elektron ma'ruzalardan, mavzularga mos multimediali slaydlar va videofilmlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarda elektron mashqlar va masalalar to'plamlaridan, test savol-javoblari, qurilmalar va jihozlarning hamda texnologik jarayon kechishining kompyuterdagi elektron modellardan, animatsion laboratoriyalardan foydalaniladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv munosabatlari yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarana-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyat ta'minlaydi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, politlog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlari.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy, yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarining nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejalari tarzida kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“Avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari” fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

Umumiy o'quv soati	162 soat
Shu jumladan:	
Jami auditoriya soatlari	80 soat
Ma'ruza	32 soat
Laboratoriya mashg'ulotlari	48 soat
Amaliy mashg'ulotlar	-
Mustaqil ta'lim	82 soat

Mavzu, bo'lim nomi				
	Ma'ruza	Laboratoriya mashg'ulot	Amaliy mashg'ulotlar	Mustaqil Ish
1. Harakat xavfsizligini tashkil etishning maqsadi va vazifalari. Avtomobilashirish, uning O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. O'zbekiston Respublikasi avtomobilashirish va yo'l tarmoqlarini o'sish ko'rsatkichlari. Yo'l harakatini tashkil etish to'g'risidagi asosiy tushunchalar «Avtomobil-haydovchi-yo'l-atrof-muhit» tizimining o'zaro bog'liqligi. Yo'l harakatini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi va xalqaro me'yoriy hujjatlar.	4	6		8
2. Yo'l harakatining asosiy tavsiflari Transport va piyodalar harakatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar. Transport oqimi jadalligi va tartibi, ularning yo'nalishlari, yil, oylar davomida va kunning soatlari mobaynida o'zgarishi. Transport oqimining yo'l sharoitiga, jadalligiga nisbatan transport vositalarining tezligini o'zgarishi. Transport oqimining zichligi, o'tkazish qobiliyati va yuklanganlik ko'effitsiyenti ko'rsatkichlarini o'zgarishi.	4	6		10
3. Yo'l-transport hodisalarini va ularning ko'rsatkichlari YTH ni tahlil qilishning asosiy vazifalari. YTH to'g'risidagi ma'lumotlar yig'ish tizimi. YTH ni vujudga kelishda yo'l sharoitining roli. YTH ni vujudga kelishda transport vositalarini texnik holatini ta'siri. YTH vujudga kelishda haydovchilarning o'rni. Avtotransport ishlab chiqarish va yo'l tashkilotlarida YTH ni hisobga olish. YTH ni yig'ish va tahlil qilishda EHM ning o'rni. YTH natijasida vujudga keluvchi zararni baholash.	4	6		10
4. Yo'l sharoitini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning harakat xavfsizligiga ta'siri Avtomobil yo'llarini mavsumiy tekshirish va kundalik nazorat qilishni tashkil etish. Yo'lning geometrik parametrlari, holati va jilozlanganlik	4	6		10

	to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish. Yo'l ni tekshirishda harakatlanuvchi laboratoriyalardan foydalanish. Harakatlanish uchun xavfli yo'l bo'laklarini aniqlash usullari. Xavfsizlik ko'effitsiyenti. Halokatlik ko'effitsiyenti. Harakatlanish uchun xavfli bo'laklarni aniqlashda statistik va ziddiyatlik vaziyat usuli. Yo'l elementlarining faol, passiv, halokatdan keyingi va ekologik xavfsizligi.				
5. Xavfsiz harakatlanishni ta'minlashda transport vositalari texnik holatining ahamiyati Avtomobilning konstruksiyasini Harakatlanish xavfsizligini ta'minlashdagi roli. Konstruktiv xavfsizlikga qo'yiladigan zamonaviy talablar. Transport vositalarini konstruktiv xavfsizlik turlari. Avtomobilni faol xavfsizligi. Avtomobilni sust xavfsizligi uni baholash. Avariyadan keyingi va ekologik xavfsizlik.		4	4		10
6. Haydovchi va uning harakat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni Haydovchi va uning harakat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni. Haydovchini xarakterlovchi ko'rsatkichlar. Haydovchini ruhiy holati va uning biologik imkoniyatlari. Haydovchi mehnatini tashkil etish. Haydovchilik kasbiga munosiblikni aniqlash. Harakatlanish xavfsizligi va alkogol.		4	4		8
7. Harakatni boshqarishning texnik vositalari Yo'l belgilari. Yo'l belgilarini o'rnatishda qo'yiladigan umumiy talablar. Yo'l belgilari turlari. Yo'l belgi chiziqlari va ishoralari. Yo'l belgi chiziqlarini tushirishga qo'yiladigan umumiy talablar. Gorizontal va vertikal belgi chiziqlarini ishlatish qoidalarini va harakatni tashkil qilish. Yo'l to'siqlari va ularni qo'llash sharoitlari. Yo'l naltiruvchi qurilmalar. Harakatni tashkil qilishda svetoforlardan foydalanish. Svetofor obektini hisoblashda ishlatiladigan asosiy tushunchalar. Svetofor turlari. Geoaxbort tizimlari to'g'risida tushunchalar.		2	4		8
8. Yo'l harakatini tashkil etishning uslubiy asoslari va amaliy tadbirlari Yo'l harakatini tashkil etishning asosiy uslubiy yo'nalishlari. Yo'l harakatini operativ tashkil etish va ularga kerakli ma'lumotlar to'plash. Transport oqimi tarkibini tekislash. Transport oqimini yo'nalishi, tarkibi va tezligi bo'yicha ajratish. Xavfsiz harakatlanishni tashkil etishda qo'shimcha polosalar belgilash usuli. Chorrabalar harakatni tartibga solishni amaliy tadbirlari. Rejadagi kichik radiusli egrilarda xavfsiz harakatni tashkil etishning amaliy tadbirlari. Aholi punktlarida piyodalarning harakatini tashkil etish.		2	2		6
10. O'zbekiston Respublikasi IIB YHXBB asosiy vazifasi Yo'l transport hodisalarini hisobga olish, tahlil qilish, surishtirish ishlarini tashkil etish, transport vositalarini ruyxatga olishni tashkil etish. Yo'l patrul xizmatining asosiy vazifalari.		2			2
Avtotransport korxonalarining boshqaruv tizimi va ularning o'zaro bog'liqligi. Haydovchilarni tayorlash, qayta tayyorlashni amalga oshirish. Avtotransport korxonalarining boshqaruv tizimi va ularning o'zaro bog'liqligi. ATKlarni xizmat bo'limlari, ATK xizmatlari o'rnatidagi o'zaro bog'liqlik; ATKlarda xizmatni tashkil etish bo'yicha nizomlar, ATKlarning harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyatini rejalashtirish. Avtotransport korxonalar texnika xizmatining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalari. Avtotransport korxonalarining xodimlar bo'limining harakat xavfsizligini ta'minlash		2	2		6

	bo'yicha faoliyati.				
11.	Avtomobil yullarida harakat xavfsizligini ta'minlash. Avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlovchi yo'l tashkilotlari. Yo'l qurilish tashkilotlarining vazifalari; loyihalash ishtirokchilarining vazifalari. Avtomobil yo'llaridan foydalanish va tuzatish xizmatining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalari (yo'l patrul xizmati). Avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini tashkil etish xizmati.	2	2	4	
	Jami	32	48	82	

ASOSIY QISM

Ma'ruza mashg'ulotlari (7-semestr)

1-ma'ruza. Harakat xavfsizligini tashkil etishning maqsadi va vazifalari.

Avtomobillashirish, uning O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. O'zbekiston Respublikasi avtomobillashirish va yo'l tarmoqlarini o'sish ko'rsatkichlari. Harakatni tashkil etishning maqsad va vazifalari. "Avtomobil-haydovchi-yo'l-atrof-muhit" tizimining o'zaro bog'liqligi. O'zbekiston Respublikasi avtomobillashirish va yo'l tarmoqlarining o'sish ko'rsatkichlari. Harakatni tashkil etish boyicha xalqaro talablar va me'yoriy hujjatlar to'g'risida ma'lumotlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Blits-oyin, blits-so'rov, muammoli ta'lim. Aqliy

hujum, munozara, o'z-o'zini nazorat **Adabiyotlar:** A3, A4, A5, A6

2-ma'ruza. Yo'l harakatning asosiy tavsiflari.

Transport va piyodalar harakatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar. Transport va riyodalar harakat miqdori oqimining jadalligi va tarkibining o'zgarishi. Transport oqimining yo'l sharoitiga, jadalligiga nisbatan transport vositalarining tezligining o'zgarishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Blits-oyin, blits-so'rov, muammoli ta'lim. Aqliy

hujum, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A3, A4, A5, A6

3-ma'ruza. Yo'l transport hodisalari va ularning ko'rsatkichlari.

Yo'l-transport hodisasi to'g'risida tushincha. YTHni tahlil qilishning asosiy vazifalari va usullari. YTH to'g'risidagi ma'lumotlar yig'ish tizimi. Yo'l-transport hodisalarini maxsus kartochkalarda va formalarda hisobga olish. YTH vujudga kelishida avtomobilning, haydovchining va yo'l sharoitlarining o'zgarishi. YTH natijasida vujudga keladigan iqtisodiy zararlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Blits-oyin, blits-so'rov, muammoli ta'lim. Aqliy

hujum, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A3, A4, A5, A6

4-ma'ruza. Yo'l sharoitini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning harakat xavfsizligiga ta'siri.

Avtomobil yo'llarini tekshirishni tashkil etish. Yo'lning geometrik parametrlari, holati va jixozlanganlik to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish. Harakatlanish uchun xavfli yo'l bo'laklarini aniqlash usullari. Xavfsizlik koefitsienti. Halokatlik koefitsienti. Harakatlanish uchun xavfli yo'l bo'laklarini aniqlashda statistik va ziddiyatli vaziyat usuli. Yo'l elementlarining faol, sust, halokadan keyingi va ekologik xavfsizligi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Blits-oyin, blits-so'rov, muammoli ta'lim. Aqliy

hujum, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A3, A4, A5, A6

5-ma'ruza. Xavfsiz harakatlanishni ta'minlashda transport vositalari texnik holatining ahamiyati.

Xavfsiz harakatni ta'minlashda avtomobil konstruksiyasining ahamiyati. Avtomobilning

konstruktiv xavfsizligini kompleks baholash. Transport vositalarining konstruktiv xavfsizlik turlari va ularga qo'yiladigan talablar. Avtomobilning faol xavfsizligini baholash. Avtomobilning sust xavfsizligini baholash. Halokadan keyingi va ekologik xavfsizlik. **Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** Blits-oyin, blits-so'rov, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A3, A4, A5, A6

6-ma'ruza. Haydovchi va uning harakat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni

Haydovchini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, uning ruhiy holati va uning biologik imkoniyatlari. Haydovchi mehnatini tashkil etish va uning kasbiga munosibligini aniqlash.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Blits-oyin, blits-so'rov, muammoli ta'lim. Aqliy

hujum, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A3, A4, A5, A6

7-ma'ruza Harakatni boshqarishning texnik vositalari

Yo'l belgilarini o'rnatishda qo'yiladigan umumiy talablar. Yo'l belgilarining turlari. Har xil yo'l sharoitlarida yo'l belgilarini qo'llash va ular yordamida harakatni tashkil etish

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Blits-oyin, blits-so'rov, muammoli ta'lim. Aqliy

hujum, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A3, A4, A5, A6

8-ma'ruza Yo'l harakatini tashkil etishning uslubiy asoslari va amaliy tadbirlari

Yo'l harakatini tashkil etishning asosiy uslubiy yo'nalishlari. Yo'l harakatini operativ tashkil etish va ularga kerakli ma'lumotlar to'plash. Chorrahalarida xavfsiz harakatni tartibga solishning amaliy tadbirlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Blits-oyin, blits-so'rov, muammoli ta'lim. Aqliy

hujum, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A3, A4, A5, A6

9-ma'ruza O'zbekiston Respublikasi IIB YHXBB asosiy vazifasi

Transport vositalarini yo'llarda harakatlanishini tartibga solish, yo'l transport hodisalarini tahlil qilish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Blits-oyin, blits-so'rov, muammoli ta'lim. Aqliy

hujum, munozara, o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A3, A4, A5, A6

10-ma'ruza Avtotransport korxonalarining boshqaruv tizimi va ularning o'zaro bog'liqligi.

Haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlashni amalga oshirish. Avtotransport korxonalarining boshqaruv tizimi va ularning o'zaro bog'liqligi. Harakat xavfsizligini ta'minlashda ilmiy-amaliy izlanishlar olib borgan olimlar to'g'risida.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Blits-oyin, blits-so'rov, muammoli ta'lim. Aqliy hujum, munozara,

o'z-o'zini nazorat. **Adabiyotlar:** A3, A4, A5, A6

11-ma'ruza Avtomobil yullarida harakat xavfsizligini ta'minlash.

Avtomobil yullarida harakat xavfsizligini ta'minlovchi yo'l tashkilotlari. Yo'l qurilish tashkilotlarining vazifalari. Avtomobil yo'llaridan foydalanish va tuzatish xizmatining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalari

"Avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari" fanidan

7-semestrda ma'ruza mashg'ulotining kalendari rejasini

T/r	Mavzular nomi	Soat
1.	Harakat xavfsizligini tashkil etishning maqsadi va vazifalari	4 soat
2.	Yo'l harakatining asosiy tavsiflari.	4 soat
3.	Yo'l transport hodisalarini va ularning ko'rsatkichlari.	4 soat
4.	Yo'l sharoitini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning harakat xavfsizligiga ta'siri.	4 soat
5.	Xavfsiz harakatlanishni ta'minlashda transport vositalari texnik holatining ahamiyati.	2 soat
6.	Haydovchi va uning harakat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni.	4 soat
7.	Harakatni boshqarishning texnik vositalari.	2 soat

8.	Yo'l harakatini tashkil etishning uslubiy asoslari va amaliy tadbirlari.	2 soat
9.	O'zbekiston Respublikasi IIB YHXBB asosiy vazifasi	2 soat
10.	Harakat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ilmiy-amaliy izlanishlar va yangiliklar.	2 soat
11.	Avtomobil yullarida harakat xavfsizligini ta'minlash	2 soat
Jami:		32 soat

7-semestr uchun laboratoriya mashg'ulotlarning mavzulari

- Transport oqimining miqdori va tarkibini real yo'l-ko'cha sharoitida aniqlash
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim. Klaster, munozara
Adabiyotlar: A [2], A [4], A [6], A [8]
- Real yo'l-ko'cha sharoitida aniqlangan ma'lumotlarni tahlil qilish
Adabiyotlar: A [3], A [4], A [6], A [8]
- Transport vositalarining oniy tezligini mavjud ko'cha sharoitida aniqlash.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, muammoli ta'lim. Kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, o'z-o'zini nazorat. Adabiyotlar: A [3], A [4], A [6], A [8]
- Mavjud ko'cha sharoitida aniqlangan oniy tezlikni tahlil qilish
Adabiyotlar: A [3], A [4], A [6], A [8]
- Real ko'cha-yo'l sharoitida piyodalar harakat oqimini aniqlash va tahlil qilish.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Klaster, muammoli ta'lim. Bahs- munozara, o'z-o'zini nazorat. Adabiyotlar: A [3], A [4], A [6], A [8]
- YTHni hisobga olishning birlamchi hujjatlarini tuzish va tahlil qilish.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, muammoli ta'lim. Bahs- munozara, o'z-o'zini nazorat. Adabiyotlar: A [3], A [4], A [6], A [8]
- Haydovchining diqqatini tadqiq qilish.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: muammoli ta'lim, bahs- munozara, o'z-o'zini nazorat. Adabiyotlar: A [3], A [4], A [6], A [8]
- Yo'l va ko'cha sharoitlarida o'rnatilgan texnik vositalarini o'rnatish (Yo'l- lini texnik ko'rikdan o'tkazish).
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, muammoli ta'lim. munozara, o'z-o'zini nazorat. Adabiyotlar: A [3], A [4], A [6], A [8]
- Texnik ko'rik hujjatlarini to'ldirish va diagnostika markazi bilan tanishish.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, muammoli ta'lim, kichik guruhlarda ishlash, bahs- munozara, o'z-o'zini nazorat. Adabiyotlar: A [3], A [4], A [6], A [8]
- Transport vositalarini tormoz tizimini ko'rikdan o'tkazish.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, muammoli ta'lim, munozara, klaster, o'z-o'zini nazorat. Adabiyotlar: A [3], A [4], A [6], A [8]
- Transport vositalarining ekologik xavfsizligini aniqlash.
Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, muammoli ta'lim, munozara, klaster, Insert jadvali, o'z-o'zini nazorat. Adabiyotlar: A [3], A [4], A [6], A [8]
- Texnik vositalarni chizmada ko'rsatish va yo'l transport hodisalarini tahlili.
Insert jadvali, o'z-o'zini nazorat. Adabiyotlar: A [6], A [8]

Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'limning maqsadi - talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar. Quyida 7-semestr uchun mustaqil ish mavzulari berilgan.

7-semestr uchun mustaqil ish mavzulari

№	Mavzuning nomi	soat
1	Harakatni tashkil etishda «A-H-Y-P-M» tizimining o'zaro bog'liqligi	2
2	O'zR avtomobilashirish va yo'l tarmoqlarining o'sish ko'rsatkichlari	4
3	Transport va piyodalar harakatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar	2
4	Transport oqimining jadalligi va tarkibining o'zgarishi;	4
5	Transport oqimining zichligi, yo'lning o'tkazish qobiliyati va yuklanganlik darajasi ko'rsatkichlarini baholash	4
6	YTH ning ta'rifi, turlari va ularning miqdori xaqidagi ma'lumotlar	4
7	YTH ni tahlil qilishning asosiy vazifalari va usullari	2
8	Yo'l-transport hodisalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish tizimi	4
9	YTHning vujudga kelishida avtomobilning, haydovchining va yo'lning o'rni	4
10	Yo'l sharoitini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularning harakat xavfsizligiga ta'siri	4
11	Yo'lning geometrik parametrlari, holati va jihatlanganlik to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish	4
12	Harakatlanish uchun xavfli yo'l bo'laklarini aniqlash usullari	4
13	Xavfsiz harakatlanishni ta'minlashda transport vositalari texnik holatining ahamiyati	4
14	Transport vositalarining konstruktiv xavfsizlik turlari va ularga qo'yiladigan talablar	2
15	Haydovchi va uning harakat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni	2
16	Haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish; harakat xavfsizligi va alkogol	4
17	Harakatni boshqarishning texnik vositalari;	4
18	Yo'l belgilarini har xil yo'l sharoitlarida qo'llash va ular yordamida harakatni tashkil etish	2
19	Yo'l belgi chiziqlarini tushirishga qo'yiladigan umumiy talablar	4
20	Harakatni tashkil qilishda svetoforlardan foydalanish	2
21	Avaryadan keyingi va ekologik xavfsizlik	4
22	YTH vujudga kelishida yo'l sharoitining roli.	2
23	YTH vujudga kelishida haydovchilarning o'rni.	2
24	Transport harakatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar	4
25	Konstruktiv xavfsizlikga qo'yiladigan zamonaviy talablar	4
Jami:		82

Dasturning informasion- uslubiy ta'minoti.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident Qarorlari va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, fan bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari, taqdimot slaydlari, ma'ruza matnlari, fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar hamda internet materiallaridan foydalaniladi.

Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish

Talabalar bilimni nazorat qilish Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi N i z o m (Nizom O'z.R. OO'MTV'ning 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 sentabrda 3069-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat semester davomida ishchi fan dasturining tegishli o'limi tugagandan keyin talabning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi.

Talabning laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarilishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi.

Talabning oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi

Yakuniy nazorat turi o'ily ta'lim muassasining tegishli fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim tomonidan ishlab chiqiladigan hamda o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadigan Yakuniy nazorat turlarini o'tkazish jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

Talabalar bilimni baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.

Talabning bilimni quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

Talaba mustaqil mustaqil va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimlarini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 5 (a'lo) baho;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi olgan bilimlarini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 4 (yaxshi) baho;

Talaba olgan bilimlarini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - 3 (qoniqarli) baho;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi, hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - 2 (qoniqsiz) baho bilan baholanadi;

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar.

1. B.A.Xodjaev. "Avtomobillarda yuk va passajirlarni tashish asoslari". Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti -2002, 239 bet.
2. B.A.Xudjaev. "Автомобильные перевозки. Т. "Ўзбекистон", 1991й
3. И.В.Спирин. Организация и управление пассажирскими автомобилями. М. "Академия" 2010г
4. Q.X.Azizov "Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari" T, "Fan va texnologiyalar" - 2009 y., 244 b.
5. Q.X.Azizov "Yo'l harakati qoidalar" T, Yozuvchi - 2016 y., 77 b.
6. В.И.Конопленко и др. "Организация и безопасность дорожного движения" Уяб для вузов. М. "Высш. шк" 2007-383стр.
7. Кремегетц Ю.А. Печерский М.П. Афанасьев М.Б. "Технические средства организации дорожного движения" Уябник для вузов-М. ИКЦ "Академкинга" 2005г. 279стр.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. SH. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni ("Xalq so'zi", gazetasi, 2017 yil, 8 fevral)
3. SH. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O'zbekiston, 2017.
4. В.М.Беляев. Организация автомобильных перевозок и безопасность движения. МАДИ. 2014.
5. М.Е.Майборода, В.В.Бернарский. Грузовые автомобильные перевозки. Ростов-На Дону, "Феникс", 2008.
6. "Avtomobillarda yuk va passajirlar tashish asoslari" fanidan laboratoriya ishlari bajarish uchun uslubiy ko'rsatma, TAIL, 2014 y.
7. Azizov K.X. yo'l harakatini tashkil etish asoslari. T.: «YOZUVCHI», 2002-182b.
8. «Xarakat xavfsizligini tashkil etish asoslari» fanidan «Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash» bakalavr yunalishi buyicha laboratoriya ishlari bajarish uchun uslubiy kursatma, Toshkent 2004, 18 b.
9. SHNK 2.07.01-03 SHaxar va kishlok axoli punktlari xududlarini rivojlantirish va kurilishini rejalashtirish. Uzbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va kurilish kumitasi T: 2003, 84 b.
10. Azizov K.X. «Yo'llarda xavfsiz xarakatlanish asoslari». O'quv qo'llanma/ T., "
11. V.Ismoilov, B.Tursunboev, M.Kalonov "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari" T" Mashhur press" 2017y, 574b
12. A.Yusupov, V.Jovliev "Avtomobillarda tashish va harakat xavfsizligini tashkil etish fsoslari" Qarshi 2021y.

Eliktron ta'lim resurslar

1. www.ziynet.uz
2. www.google.uz
3. www.lex.uz